



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

### SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARINING ETIMOLOGIK VA TARIXIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Kenjayeva Iroda Alisherovna

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

#### Annotatsiya:

Mazkur maqolada Sirdaryo viloyatidagi ayrim toponimlarning kelib chiqishi, ularning etimologik asoslari, tarixiy manbalardagi qaydlari hamda semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu nomlarning shakllanish omillari yoritilishi orqali Sirdaryo viloyati toponimik tizimining tarixiy-lisoniy taraqqiyoti va hududning etnomadaniy xususiyatlari yoritiladi.

**Tayanch soʻz va iboralar:** Til, soʻz, toponim, etnotoponim, etimologiya, tarix, geografiya.

Toponimlar xalqning tarixiy xotirasi, etnik tarkibi, tabiiy-geografik muhiti hamda til taraqqiyotini oʻzida aks ettiruvchi muhim lisoniy birliklar hisoblanadi. Har bir joy nomi muayyan hududning tabiiy sharoiti, tarixiy voqealari, etnik jarayonlari hamda xoʻjalik faoliyati bilan uzviy bogʻliq holda shakllanadi. Shu bois toponimlarni etimologik va tarixiy nuqtayi nazardan oʻrganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, geografiya va etnologiya fanlari uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Sirdaryo viloyati toponimik tizimi qadimiy va murakkab qatlamlardan tashkil topgan boʻlib, unda turkiy, forsiy va arabiy til unsurlari, shuningdek, etnonimlar, oronimlar, gidronimlar hamda antropogen omillar oʻz ifodasini topgan. Ayniqsa, Boyovut, Xovos, Sardoba va Sayxunobod tumanlaridagi joy nomlari hududning tabiiy relyefi, qadimiy qabila va urugʻlar nomi, tarixiy obidalar hamda aholi migratsiyasi bilan chambarchas bogʻliqdir.



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Viloyatdagi ana shunday ahamiyatga ega joylardan biri Darvozaqir deb yuritiladi. Darvozaqir – Boyovut tumanida joylashgan qishloq nomi bo‘lib, u yerning relyefi bilan bevosita bog‘liq. Ushbu hudud nisbatan kichik tepa, ya’ni balandroq va tekislikdan biroz ko‘tarilgan joyda joylashgan. Shu sababli u xalq tilida “tepacha”, “qircha” kabi so‘zlar bilan ifodalangan. Hozirgi kunda ham aholi bunday joylarni “qircha” deb ataydi. Qishloq M34 – xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo‘li – Guliston va Yangiyer shaharlari oralig‘ida, aynan shunday tepalik(qir)da joylashgan. Mahalliy aholining aytishicha, qishloq dastlab tashkil topgan davrda unga kirish qismida ramziy darvoza o‘rnatilgan. Bu darvoza qishloqning o‘ziga xos belgisi bo‘lib xizmat qilgan. Vaqt o‘tishi bilan shu belgi qishloq nomiga ko‘chib, Darvozali qir // Darvozaqir shaklida mustahkamlangan.

Taltepa Xovos tumanidagi tepalik nomlaridan biridir. “Tal” arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, tepa, do‘ng, pastak tog‘, tuproq va qum uyumi kabi ma’nolarni anglatadi. Mazkur toponimda pleonastik qo‘llash hodisasi kuzatiladi, ya’ni ma’nodosh unsurlar birikib, nom hosil qilgan. Natijada “Taltepa” nomi ikki xil, ammo o‘xshash ma’noli so‘zlarning qo‘shilishidan yuzaga kelgan bo‘lib, hududning relyef xususiyatini ifodalaydi.

Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanidagi Gumbaz qishlog‘i hududida, Toshkent, Samarqand, Buxoro yo‘nalishini bog‘lovchi M 39 avtomagistrali yaqinida Yog‘ochli Sardoba (Og‘ochli sardoba) nomli muhim qadimgi me’moriy yodgorlik joylashgan. Mirzacho‘l hududida mavjud bo‘lgan uchta sardobadan biri bo‘ladi. Ushbu inshoot viloyatda shu turdagi yagona saqlanib qolgan tarixiy obyekt bo‘ladi. Mazkur Yog‘ochli Sardoba o‘rta asrlarda “Xudoysera” nomi bilan ham atalgan. Ayni vaqtda esa unga nisbatan “Og‘och” nomi ham qo‘llaniladi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Sardoba XVI asrda o‘zbek hukmdori Abdullaxon (1557-1598) davrida bunyod etilgan. Ayrim manbalarda esa uning qurilishi Amir Temur (1370-1405) davriga borib taqalishi haqida ham ma’lumotlar uchraydi.



## **Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation**

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Ushbu yodgorlik O‘zbekistonning moddiy va ma’naviy merosi sifatida davlat muhofazasiga olingan hamda milliy ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, u Sirdaryo viloyatidagi muhim ekoturizm obyektlaridan biri sifatida ham e’tirof etiladi.

Sayxunobod tumanidagi ko‘l nomlaridan biri Qamishli deb ataladi. Bu nom qamish leksemasiga egalik va sifat yasovchi -li affiksni qo‘shish orqali hosil qilingan. Qamishli atamasi “qamish o‘sadigan joy”, “qamishzor hudud” degan ma’noni anglatadi. Darhaqiqat, ushbu ko‘l atrofi doimo qamish bilan qoplangan bo‘lgani uchun ham shu nom bilan atalgan.

Sarmich toponimi Boyovut tumanidagi mahallalardan birining nomi hisoblanadi. Bu nom Jizzax viloyatining Yangiobod tumanidagi Sarmich qishlog‘idan ko‘chib kelgan aholi nomi bilan bog‘liq tarzda yuzaga kelgan. Sarmich (Sarmunshiy – Sarmush – Sarmuch – Sarmich fonetik o‘zgarishga uchragan) fors tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib, bosh munshiy, bosh kotib degan ma’noni bildiradi. Ya’ni davlat ishlarini yurituvchi, rasmiy hujjatlarni tayyorlovchi shaxs ma’nosida ishlatilgan.

Boyovut – Sirdaryo viloyati tarkibidagi muhim tumanlardan biri bo‘lib, shu nom bilan ataluvchi shaharcha va qishloq ham mavjud. Bu nom qadimdan Sirdaryo bo‘ylarida yashab kelgan turkiy urug‘lardan birining nomi – etnonim asosida shakllangan. 1991-yildan boshlab tuman rasmiy markazi Boyovut shahri hisoblanadi. XX asrning 60-yillarida Mirzacho‘lni o‘zlashtirish boshlanishi bilan bu hududga turli joylardan ko‘plab aholi ko‘chib kelgan va qurilish ishlari natijasida shahar hududi kengayib borgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, 1961-1991-yillar oralig‘ida ushbu shahar Dmitrovo nomi bilan ham atalgan.

Boyovut tumani Sirdaryo viloyatining sharqiy qismida, Mirzacho‘l dashtining janubiy hududida joylashgan. Tuman relyefi, asosan, tekisliklardan iborat. Hudud nomining o‘zi ham qadimiy turkiy urug‘lardan birining nomidan kelib chiqqan bo‘lib, ushbu yerlarning tarixiy ildizlari juda chuqur ekanligini ko‘rsatadi.



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Rashididdinning “Jome ut-tavorix” hamda Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarlarida Chingizxon qo‘shinlari bilan birga kelgan qabilalar tarkibida Boyovut urug‘i ham tilga olingan. Boyovut atamasi “boy”, “boyalar” degan ma’nolarni anglatib, qadimdan obro‘li va nufuzli urug‘lardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuningdek, qozoqlarning Arg‘in qabilasining bir shohi ham bayaut urug‘i mavjudligi qayd etiladi. Ayrim tadqiqotchi toponimistlar, jumladan, boshqird etnologi R.G.Kuzeyev Boyovut va Bayot aslida bir ildizdan kelib chiqqan yagona qabila bo‘lgan, degan fikrni ilgari surgan.

Rashididdinning yozishicha, qadimgi davrlarda Boyovut juda katta va qudratli qabilalardan biri bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan bir necha tarmoqlarga bo‘linib ketadi. XII-XIV asrlarga kelib, boyovutlarning katta qismi o‘zbek va turkman xalqlari tarkibiga singib ketib, ular bilan aralashib yashay boshlaydi. Ba’zi qo‘lyozmada esa Boyovut qadimiy 92 o‘zbek urug‘laridan biri sifatida alohida qayd etilgan.

Boyovut toponimining kelib chiqishi haqida turli qarashlar mavjud. Masalan, ayrim manbalarda bu nom “otga boy”, “boy ot” so‘zlaridan kelib chiqqan deb izohlanadi. Boshqa bir ma’lumotlarda esa bu atama “boy o‘t” – “o‘tlarga boy yer” ma’nosidan kelib chiqqani aytiladi. Demak, nomning kelib chiqishi tabiiy boyliklar bilan bog‘liq bo‘lishi ehtimoli yuqori. XVI asrda yashagan farg‘onalik tarixchi Mulla Sayfiddin Axsikandiyning “Majmu-at-tavorix” asarida ham Boyovut 92 bo‘li o‘zbek urug‘laridan biri sifatida tilga olinadi. Bu esa ushbu urug‘ning tarixiy ahamiyati va keng tarqalganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Turkiy xalqlarning qadimgi etnonimlari tarkibida -t/-d/-it/-at/-ot/-ut qo‘shimchalarning takroran uchrashi ham muhim tilshunoslik belgilaridan biridir. Bu qo‘shimchalar etnik birliklar nomining shakllanishi oltoy tillari davriga borib taqalishini qayd etadi: Masalan, boshqirt / boshqird, arlot / orlot, bayot / boyot, boyovut, obot / ovot, qiyat / qiyot, sayot / sayyot, esat /usat / o‘sat, o‘smat, burqut / burg‘ut, o‘ymovut / uymovut, mang‘it, makrit, mesit / masit, dug‘lat / duvlat,



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

chubat / chibat (yuz qabilasining urugʻi), boyqut / boygʻut, juyrat, chuyut, chiljuvut, qoʻngʻirot, oʻngʻut / oʻngat va boshqa koʻplab etnonimlar shular jumlasiga kiradi. Bu holat boshqa turkiy xalqlarda ham keng tarqalgan.

Tadqiq qilinayotgan hududdagi qishloq aholisi urugʻi mangʻit boʻlib, uning nomi – Oʻymovut shaklida saqlanib qolgan. Ushbu nomdan kelib chiqib, mazkur qabila oʻtmishda mangʻitlar tarkibiga kirganini taxmin qilish mumkin. Tarixiy manbalarda, xususan, Abulgʻoziy Bahodirxon asarida moʻgʻullar orasida ham oʻymavut urugʻi mavjud boʻlganligi qayd etiladi. Xalq oʻrtasida bu nomning oʻrmavut shaklida talaffuz qilinishi ham uchraydi. Oʻymovut toponimi yasalma boʻlib, oʻyn va movut soʻzlaridan tashkil topgan. Eʼtiborlisi, ushbu soʻzlar hozirgi va eski oʻzbek tili lugʻat tarkibida uchramaydi. Bu holat mazkur etnonim tarkibidagi birliklar faqat oʻzbek tiliga emas, balki umumturkiy tillarning ilk oʻtmishiga oid ekanligini koʻrsatadi. Shuningdek, etnonim oxirida kelgan -t qoʻshimchasi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Turkiy etnonimlarda keng qoʻllangan -t qoʻshimchasi turli fonetik variantlarga ega boʻlib, -at/-it/-ot/-ut shakllarida uchraydi. Masalan, qorayit, qoʻngʻirot, mesit, makrit, chuyut, chiljuvut, uyrat, juyrat, toʻlangit, boshqirt, boyovut, boyivut, arlot, qirot, uyot, isat, quyot, burqut kabi etnonimlarda ushbu qoʻshimcha aniq kuzatiladi. Ushbu affiks etnonimlar tarkibida jamlik, toʻp, jamoa, kishilar guruhi, odamlarning kichik uyushmasi maʼnosini ifodalaydi. Bu affiksning soʻzlarga qoʻshilib, qayd etilgan maʼnoni ifodalashi ilk urugʻchilikkacha boʻlgan davr ibtidoiy jamoachilik davrida yuz bergan. Shu bois soʻz tarkibiga shunchalik jipslanib ketganki, koʻpincha bu tur etnonimlarni tarkibiy qismlarga ajratish qiyin.

Xovos – Sirdaryo viloyati tarkibidagi shaharcha va tuman nomi. U viloyatning janubiy qismida joylashgan. Hududning tabiiy-geografik xususiyatlari, xususan, pasttekislik relyefi uning tarixiy shakllanishi va aholi joylashuviga taʼsirini koʻrsatgan. Oʻrta Osiyo hududida kuzatiladigan kuchli shamollar orasida “Xovos



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

shamoli” alohida e’tiborga molik bo‘lib, u o‘zining tabiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xovos shahri muhim transport chorrahasida – avtomabil va temuryo‘l kesishgan hududda joylashgan. Bu esa hududning iqtisodiy va strategik ahamiyatini yanada oshiradi.

Xovos qadimiy aholi maskanlaridan biri hisoblanadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, ushbu hudud haqida ilk ma’lumotlar X asrda yashab ijod qilgan arab geografi va sayyohlari Istaxriy, Ibn Havqal hamda Muqaddasiy asarlarida uchraydi. Bu holat Xovosning o‘rta asrlardayoq muhim geografik va ijtimoiy markazlardan biri bo‘lganligini ko‘rsatadi. Hozirgi Xovos shahri esa 1899-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan Ursatevskaya nomli temiryol stansiyasi sifatida barpo etilgan. Keyingi ma’muriy-hududiy o‘zgarishlar natijasida tuman 1955-1966-yillarda Boyovut tumani tarkibida, 1966-1975-yillarda esa Yangiyer tumani nomi bilan atalgan. Hozirgi kunda Xovos tumani viloyatning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, uning relyefi asosan tekislikdan iborat.

Xovos nomining etimologiyasi masalasida ilmiy doiralarda yakdil fikr mavjud emas. Mutaxassislar bu borada qo‘shimcha tadqiqotlar zarurligini ta’kidlaydilar. Shunga qaramay, ayrim ilmiy manbalarda ushbu nomning kelib chiqishi haqida muayyan taxminlar ilgari surilgan. So‘nggi paytlarda Xovos so‘zining etimologiyasi xususida ilmiy manbalarda quyidagi talqin uchraydi. Boburiylar davrida Hindistonda yashab faoliyat yuritgan forsiyzabon shoir va olim Sirojiddin Alixon Orzu o‘zining (1689 – Agra, 1756 – Dehli) “Charog‘i hidoyat” nomli lug‘atida xavos so‘zi fors tilida avom, xizmatkor ma’nolarini anglatishini qayd etgan. Bu o‘z navbatida toponimning ijtimoiy-ma’naviy mazmun bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Sirdaryo viloyatidagi toponimlar o‘zining kelib chiqishi va mazmuniga ko‘ra xilma-xil bo‘lib, ular hududning tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy taraqqiyoti, etnik tarkibi hamda madaniy merosini o‘zida



## Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

mujassamlashtiradi. Darvozaqir va Taltepa kabi nomlar relyef xususiyatlari asosida, Qamishli tabiiy o'simlik qoplami bilan bog'liq holda, Yog'ochli Sardoba esa tarixiy-me'moriy obida nomi sifatida shakllangan. Sarmich toponimi aholi ko'chishi jarayonlarini aks ettirsa, Boyovut va O'ymovut kabi nomlar qadimgi turkiy etnonimlar bilan bog'liq bo'lib, xalqning etnik tarixini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi. Xovos toponimi esa qadimiy yozma manbalarda uchrashi va etimologiyasi yuzasidan turli ilmiy qarashlarning mavjudligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, mazkur toponimlar Sirdaryo viloyatining tarixiy-lisoniy taraqqiyoti, etnomadaniy jarayonlari va tabiiy-geografik xususiyatlarini o'rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ularning etimologik tahlili joy nomlarining faqat geografik belgisi emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va etnik taraqqiyotini aks ettiruvchi qimmatli til birliklari ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Kelgusida bu kabi tadqiqotlarni yozma manbalar, arxeologik ma'lumotlar va mahalliy sheva materiallari asosida yanada chuqurlashtirish Sirdaryo viloyati toponimikasining ilmiy tavsifini boyitishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аббосали Вафойй, Шерали Аvezметов // Ўзбек тилига ўзлашган форсча сўзлар. – Тошкент: “Моварроунахр” нашриёти – Техрон “Ал-худо” халқаро нашриёти, 2005.
2. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. Qashqadaryo qishloqlari nomining tadqiqi. – T.: Muharrir, 2009.
3. Ermatov I. Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug'ati. “BOOKMANY PRINT” Toshkent – 2024.
4. Qorayev S. Toponimika. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.